ТИЛ, АДАБИЁТ, ТАРЖИМА, АДАБИЙ ТАНҚИДЧИЛИК: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР

халқаро илмий-амалий анжуман материаллари

ТЎПЛАМИ

2022 йил 15 апрель



Бухоро

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INFORMATSION MATNLAR TAHLILI ASOSIDA YANGI BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH VA UNI O'Z TAJRIBASI BILAN BOG'LASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Aslanova Nozima Xakimovna-
Buxoro viloyati XTXQTMOHM mustaqil tadqiqotchisi
Narziyeva Mastura Sunnatovna –
Buxoro viloyati XTXQTMOHM katta o'qituvchisi

O'qish va anglash inson va jamiyat ravnaqi uchun o'ta muhim zarurat sanaladi. Chunki o'qish vositasida kishi o'rganadi, ilm oladi va hayotiy muammolarni hal etish ko'nikmalariga ega bo'lib boradi. Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'inini samarali tashkil etish, unga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida sifat va samaradorlikka erishishda g'oyatda muhim sanaladi. Zamonaviy ta'lim o'quvchilarga beriladigan bilimlarning to'laqonli amalga oshirilishini ko'zda tutadi.

Inson hayoti davomida tabiiy va aniq fanlarni o'rganish amaliyoti bu fanlarni o'qitish va o'rganishda bir qancha afzalliklarga ega bo'lsa-da, ba'zan bu faoliyatda ilmiy-ommabop matnlardan foydalanishda muammolar paydo bo'ladi. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish bilan bog'liq muammosini hal etish uchun ularga taqdim etiladigan o'quv materiallarining nazariy darajasini boyitish, bilish metodlari bilan tanishtirish, ularni o'z-o'zini rivojlantirish va mustaqil ishlash usullari bilan qurollantirish asosida o'quvchilarning mantiqiy hamda tanqidiy tafakkurlarini rivojlantirishga ko'maklashish zarur.

Aksariyat tabiiy va aniq fanlarga oid bo'lgan va o'quvchilar foydalanadigan ilmiy matnlarning xususiyati bir muncha murakkabliklar tug'diradi. O'quvchilar ilmiy-ommabop matnlarni o'qib chiqqandan so'ng ularda noto'g'ri xulosalar, tushunmaslik bilan bog'liq muammolar paydo bo'ladi. E.G.Vasuro bunday ko'rsatadi: "Haqiqiy umumlashtirish obyektlarni shu obyektlarning muhim xususiyatlari bo'yicha differensiallashtirilgandan keyingina amalga oshadi".

Shu nuqtai nazardan, fanlarni o'zlashtirish strategiyalarining paydo bo'lishi ta'lim oluvchilarda o'qish faoliyati orqali yangi bilimlarning hosil bo'lishiga yordam beradi.

Fanni o'rganishda o'qish faoliyati ta'lim jarayonining turli bosqichlarida amalga oshiriladi: o'qishdan oldin, o'qish paytida va o'qishdan keyingi bosqichlar. O'qishdan oldingi bosqich talabalarning oldingi bilimlarini faollashtirish va tasavvur shakllanishi uchun amalga oshiriladi. O'qish bosqichi matndan olingan yangi bilimlarni shakllantirish va uni o'z tajribasi bilan bog'lash uchun amalga oshiriladi. O'qishdan keyingi bosqich olingan bilimlarning mazmunli bo'lishi uchun ularni tizimlashtirishga va umumlashtirishga qaratiladi.

O'qish jarayonining barcha bosqichlari fanlarni o'rganish jarayonida o'qish strategiyasidan foydalangan holda qo'llanilishi mumkin.Yaqin orada e'lon qilingan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni orqali maktab ta'limini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish uchun ulkan islohotlar sari dadil qadam qo'yildi. Bu Farmon asosida xalq ta'limi sohasiga mas'ul bo'lgan har bir pedagog uchun darsliklarni yangilashda ishtirok etish vazifasi berildi. Ayni vaqtda yangi avlod darsliklarini ilg'or tajribalar asosida to'liq yangilash uchun Angliya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlardan qirqqa yaqin xalqaro ekspertlar jalb qilindi. Mazkur darsliklar o'quvchilarning nazariy bilimlarini oshirib, fikrlashga chorlaydigan metodikalardan tashkil topishi ko'zda tutulmoqda.

Kelgusi besh yilda 1,2 million o'quvchi o'rni yaratilishi yuzasidan berilgan vazifa ham ta'limda amalga oshirilishi kutilayotgan tub islohotlardan biridir. Yaqin besh yillikda aholi soni o'sishi bilan bir qatorda maktab o'quvchilarining soni ham o'sadi. 2025- yilga borib, o'quvchi soni 7 mln.dan ko'proqni tashkil etadi. Tabiiyki, maktablarda shuncha o'quvchi o'rni ham bo'lishi kerak. Shularni inobatga olgan holda mamlakatimiz rahbari 2022-yilning o'zida 527 ta yangi va

ta’mirtalab maktablarni rekonstruksiya qilish yo‘li bilan kerakli o‘quvchi o‘rni yaratilishini rejaga kiritish bo‘yicha topshiriq berdi.

E’tirof etish joizki, sifatli ta’lim olishni keng yo‘lga qo‘yish yuzasidan amalga oshirilayotgan davlat siyosati darajasidagi ishlar, ya’ni Prezidentimiz farmoyishlari va Qonun hujjatlari bugungi zamonaviy ta’limni rivojlantirish uchun o’ta ahamiyatlidir. Bunday muhim hujjatlar mamlakatimizdagi ma’naviy-ma’rifiy jarayonni samarali yuksaltirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish, yoshlarimizning barkamol bo‘lib tarbiyalanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yanada kengaytirish yo‘lidagi muhim qadam bo’lib hisoblanadi.

Ma’lumki, mamlakatimizdagi 4-sinf o‘quvchilari 2021-yildagi PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida ilk marotaba ishtirok etdi. Bunda respublika bo‘yicha jami 180 ta maktab tanlab olindi va 5948 ta o‘quvchi qatnashdi. PIRLS - (ingl. Progress in International Reading Literacy Study), ya’ni matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) har 5 yilda o‘tkaziladigan dastur bo‘lib, unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o‘qish darajasi baholanadi va bu jarayonda “badiiy tajriba orttirish” va “axborotni olish va undan foydalanish”ga alohida e’tibor qaratiladi. PIRLS xalqaro baholash dasturida ishtirok etish ta’lim sifatini oshirish bilan birga o‘quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga mos ravishda boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida samarali ish turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday darslarni tashkil etishda o‘qituvchilar maxsus tayyorgarlik ko‘rishlari, har bir matnning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishlari lozim. Chunki aynan o**’qish** orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo’ladi, o’qishni bilmagan odamda dunyoqarash o’ta tor bo’ladi. Boshlang’ich sinfda o’qish faoliyati barcha darslar jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, eski maktablarda o’qish quruq yod olish metodida o’rganilgan bo’lsa, hozirgi kunda maktablarda o’qish **izohli o’qish** metodiga asoslanib olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so’zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, o’qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o’qishning ongli bo’lishiga mutlaqo e’tibor berilmagan. Ularda ko’proq to’g’ri talaffuzga, qiroat bilan o’qishga, ifodali o’qishga katta e’tibor berilgan. Ongli o’qish orqali inson tabiat, jamiyat, ularning o’tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilar, vatan, ob-havo, tabiiy va ma’naviy boyliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egalaydilar. Ularga nisbatan munosabat uyg’onadi, shu yo’sinda o’quvchi shaxsi aqlan, ma’nan shakllanib boradi. Insonning aqliy kamolotida esa badiiy matnlar bilan birgalikda axborotli matnlarning ham o’rni beqiyos. Chunki insonda ilmiy dunyoqarash dunyoviy bilimlarni egallash vositasida paydo bo’ladi. Aqliy yetuklik esa, ilmiy mavzulardagi axborotli matnlarni tushunish va bu tushunchalardan amalda foydalanish bilan belgilanadi. Xo’sh, axborot matnining mohiyati nimada?

O’quvchining informatsion matnlardagi ma’lumotni tushunishi ularda aks etgan turli ko’rinishdagi tasvirlar, rasmlar, jadvallar va grafiklar orqali aniq mazmunni anglashi - axborotli matn mohiyatini tushunishi hisoblanadi. To'rtinchi va undan yuqori sinf o'quvchilaridan odatda badiiy va informatsion xarakterga ega bo'lgan matn xususiyatlarini anglash talab etiladi. Chunki maktabning bu davriga kelib, fanlar tizimida turli ilmiy-ommabop ma'lumotlarni topish va aniqlash zaruriyati paydo bo’ladi. Informatsion matnlar mohiyatini anglashga asosan, o’quvchining psixik holatlari, diqqati, sezgisi, tafakkuri, xotirasi, tafakkuri va idroki yordam beradi. Shuningdek, matnning turli qismlari o’quvchilarda matn haqida ma’lumot berishi ko’zda tutiladi. Matnni tushunish asosan matnning sarlavhasi orqali boshlanadi va o’quvchini matnni tushunishga tayyorlaydi. Turli rasmlar, terminlar, grafiklar, jadvallar esa information matndagi asosiy mazmunni ochib berish maqsadida qo’llaniladi. Shuningdek, bu vositalar informatsion matnning alohida xususiyati sifatida ma’lumotlarning kishi xotirasida uzoq muddatda saqlanib qolinishiga olib keladi. Informatsion matnlardagi turli sohaga oid terminlar ularning lug'aviy xususiyatlarini, ya’ni matn ichidagi maxsus so'zlarning ta'riflarini o’zida aks ettiradi.

Matn mazmunini tushinishni osonlashtiruvchi xususiyatlar toifasiga jadvallar, tasvirlar, suratlar, taglavhalar, grafika va diagrammalar kiradi.

Tasvirlar - rassomning ijod mahsuli bo'lib, ular matn mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Suratlar – bir necha yuz yil ilgari fotosuratlar bosmadan chiqarish murakkab jarayon sanalgan. Endilikda raqamli axborot vositalari fotosuratlarni yaratish va qayta ishlashni osonlashtirdi. Endilikda ular axborot materiallarida juda keng qo'llaniladi.

Taglavhalar - suratlarning pastki qismida chop etiladi va matnda o'z aksini topgan narsa va hodisaning mohiyatiga izoh sifatida beriladi.

Grafika va diagrammalar - tasvirlardan farqli o'laroq, jadvallar va diagrammalar matndagi umumiylik, parametrlar, masofa, o'lchov, raqamli va boshqa ma'lumotlarni ifodalashga qaratilgan. Ko'pincha ular grafiklar, jadvallar, chiziqli va doirasimon diagrammalar hamda xaritalarni o'z ichiga oladi.

Innovatsion shaklda tashkil etiladigan darslarda asosan o'quvchilarga beriladigan ma'lumotlar uzoq muddatda ularning xotirasida saqlanishi muhim hisoblanadi. PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga mos test va topshiriqlar aynan shu maqsadni qamrab oladi.

NEWSPAPER LANGUAGE AND METHOD

Kadirova Zarina Bahodirovna,
Master student, BUkhSU

Introduction. *Newspaper style* was the last of all the styles of written literary English to be recognized as a specific form of writing standing apart from other forms.

English newspaper writing dates from the 17th century. At the close of the 16th century short news pamphlets began to appear. Any such publication either presented news from only one source or dealt with one specific subject. Note the titles of some of the earliest news pamphlets: "New news, containing a short rehearsal of Stukely's and Morice's Rebellion" (1579), "News from Spain and Holland" (1593), "Wonderful and strange news out of Suffolke and Essex, where it rained wheat the space of six or seven miles" (1583). News pamphlets appeared only from time to time and cannot be classed as newspapers, though they were unquestionably the immediate forerunners of the British press.

Main part. The first of any regular series of English newspapers was the *Weekly News* which first appeared on May 23, 1622. If lasted for some twenty years till in 1641 it ceased publication. The 17th century saw the rise of a number of other news sheets which, with varying success, struggled on in the teeth of discouragement and restrictions imposed by the Crown. With the introduction of a strict licensing system many such sheets were suppressed, and the Government, in its turn, set before the public a paper of its own—*The London Gazette,* first published on February 5, 1666. The paper was a semi-weekly and carried official information, royal decrees, news from abroad, and advertisements.

The first English daily newspaper—*the Daily Courant*— was brought out on March 11, 1702. The paper carried news, largely foreign, and no comment, the latter being against the principles of the publisher, as was stated in the first issue of his paper. Thus the early English newspaper was principally a vehicle of information. Commentary as a regular feature found its way into the newspapers later. But as far back as the middle of the 18th century the British newspaper was very much like what it is today, carrying on its pages news, both foreign and domestic, advertisements, announcements and articles containing comments.

The rise of the American newspaper, which was brought onto American soil by British settlers, dates back to the late 17th, early 18th centuries.

It took the English newspaper more than a century to establish a style and a standard of its own. And it is only by the 19th century that newspaper English may be said to have developed into a system of language media, forming a separate functional style.

МУНДАРИЖА

Зарипов Ботир Комилович. Тил яшаса, миллат яшайди 3
Ҳамраев Мирали Мухаммеджанович. Кучли жамиятда кучли маънавият мужассам 4
Обиджон Хафизович Хамидов. Тил – миллат қиёфасининг бир бўлаги 5
Лутфия Мирзаева. Уч буюк қадрият: маънавият, маърифат, маданият. 6
Зиёда ҒАФФОРОВА. Навоий қаламида Бухоро ва бухороликлар талқини 11

I ШЎЪБА. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. КОРПУС ЛИНГВИСТИКАСИ МАСАЛАЛАРИ. МЕДИАЛИНГВИСТИКА ВА ЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚОТЛАР 15

Н.Б.Атабоев. СОСА МАНБАЛАРИДА МОРФОЛОГИК БИРЛИКЛАР ТАДҚИҚИ 15
Haydarov Anvar Askarovich. FONOSTILISTIK TAKROR 16
Rasulov Zubaydullo Izomovich. AXBOROT-DISKURSIV TAHLIL ASOSLARI XUSUSIDA 20
Jalilova Lola, Ergasheva Fatima. ADULTS` CHALLENGES IN ENGLISH LEARNING PROCESS 21
Jalilova Lola, Sirojeva Kamila. TPR- ONE OF THE MOST SUCCESSFUL METHODS OF CHILD DEVELOPMENT 24
Rakhmatova Mekhriniso Musinovna. ACADEMIC INTEGRITY: DEVELOPING HOLISTIC UNIVERSITY APPROACH AND POLICY 27
Rakhmatov Ahmad Pirmukhammadovich. FLIPPED LEARNING IN THE EDUCATIONAL PROCESS: ESSENCE, ADVANTAGES, LIMITATIONS 30
Nazarov Rustam Irkinovich. A MODERN METHOD TO TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER INSTITUTIONS 32
Nazarov Rustam Irkinovich. MOTIVATION TO STUDY FOREIGN LANGUAGES AMONG STUDENTS OF TECHNICAL UNIVERSITIES 35
Xudoyberdiyeva Gulasal Shuxratovna. "GARRI POTTER" ROMANLAR TO'PLAMIDA PSIXOLOGIYA 38
Ro'ziyeva Nilufar, A.A.Haydarov. TILSHUNOSLIKDA FONOPRAGMATIK KONNOTATSIYA MASALALARI 40
N.A.Axmetova, G.A.Rahmonova. PIRLS – XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORGARLIK: BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH 42
Moxichexra Aliyeva. INTEGRATIVE PEDAGOGICAL THOUGHT IN THE ERA OF THE EASTERN RENEAISSANSE. 44
Ochilova Zulaykho Hasanovna. LEARNING LANGUAGE IS NEED OF TIME. 46
D.Sh. Qurbonova. TOPISHMOQLAR VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BOG`LANISHLI NUTQINI O'STIRISH 47
Aslanova Nozima Xakimovna, Narziyeva Mastura Sunnatovna. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INFORMATSION MATNLAR TAHLILI ASOSIDA YANGI BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH VA UNI O'Z TAJRIBASI BILAN BOG'LASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH 51
Kadirova Zarina Bahodirovna. NEWSPAPER LANGUAGE AND METHOD 53
Rakhimova Zarina Uktamovna. THE LANGUAGE AND STYLE OF MASS MEDIA 55
Ахмедов Б.Я. РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ: ОБУЧЕНИЕ ЧТЕНИЮ 57
Абдуллаева Нилуфар. ПОЭТИК ЎЙИНДАН ФОНЕТИК ЎЙИНГА 59
Safarova X.S. INGLIZ TILIDAGI FRANTSUZ O'ZLASHMA SO'ZLARINI ASSIMILYATSIYA QILISH TURLARI 61
Жумаев Аббосжон Акмалович. "НАВОДИР УЛ - ВАҚОЕЪ" – МАЪНАВИЙ МЕРОС ВА НОДИР ТАРИХИЙ МАНБА 63